

## TILLARNING PAYDO BO'LISH TARIXI VA TARAQQIYOTI

**Asadova Ch.S.**

*Sam DChTI o'qituvchisi*

**Rustamova P.A**

*Sam DChTI , 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tillarning kelib chiqishi tarixi, rivojlanish bosqichlari, tilshunoslikning fan sifatida kiritilishi, tilning paydo bo'lishi haqida olimlar tomonidan berilgan farazlar va ma'lumotlar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** tilshunoslik, tarix, mantiq, falsafa, etnografiya, psixologiya, antropologiya, Markaziy Osiyo, YunonistonM.Koshg'ariy, Beruniy, Ibn Sino, Demokrit, PlatonFarobiy, F.de. Sossyur, A.Shleyxer, B.Grosse, Von Gumboldt, nutq, yozuv, tovushga taqlid, jamiyat.

Til qachon paydo bo'lган, qanday, qayerda paydo bo'lган, til paydo bo'lган davrlarda nechta til bo'lган, degan savollar qadim zamonlardan buyon insoniyatni qiziqtirib kelgan. Bu savollarga javob berish juda qiyin va murakkab. Tilning kelib chiqish tarixini ba'zilar inson nutqi bilan bog'liq, deb o'yashlari mumkin. Lekin tilning paydo bo'lishini nutqqa bog'lab bo'lmaydi. Yuqoridagi savollarga javobni faqatgina tilning kelib chiqish tarixini va umumiyligi o'rnatuvchi fan, tilshunoslik fanining masalasi emas, balki etnografiya, antropologiya, tarix, falsafa va psixologiya kabi fanlarning ham muammozi sanaladi. Hozirgi kungacha til paydo bo'lishidan oldin insonlar qanday tovush va imo-ishoralardan foydalanishgani ma'lum emas.

Ba'zi tilshunos olimlarning fikricha, til million yillar avval paydo bo'lган. Lekin u davrda til va yozuv paydo bo'lmasdan oldintovushlar qanday talaffuz qilinganligi va qaysi tovush nimani ifodalaganligi qorong'u. Shuning uchun, biz o'zimizni qiziqtirgan til bilan bog'liq savollarimizning javobini faqatgina yozma manbalar va yozma yodgorliklar orqali, yozuv paydo bo'lгandan keyingi davrni bilib olishimiz mumkin. Shunga qaramasdan, yozma yodgorliklar, toshlarga o'yib yozilgan manbalar va meroslardan til haqida to'liq faktlar va ma'lumotlar olish imkonsiz.[2.11]

Tilshunoslik fanitilning paydo bo'lishi tarixini, uning bosqichma-bosqich qanday taraqqiy etib, rivojlanganini, tilning insonlar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatidagi o'rnini, tilva tafakkur o'rtasidagi munosabatlarni, tilning qanday tarkib topganligini, ichki tuzilishini – uni tahlilqilish usullari va shu kabi muammolarni o'rnatuvchi fan sifatida oliv ta'lim muassasalarida o'qitiladi. Tilshunoslik fanining asosiy problemasi, predmeti va o'rnatish obyekti bu tildir. Tilning turlicha va ko'p ta'riflari mavjud, hattoki tilshunoslik fanining o'zida ham tilga yagona ta'rif yo'q. Tilga ta'rif masalasi tilshunoslik fani tarixinining eng asosiy va muhim masalalaridan biri bo'lib kelgan. Hozirgi kunda ham bu masala olimlar, professorlar va ilmiy maktablar o'rtasida anchagina bahs va munozaralarga sabab bo'lib

kelmoqda. Chunki hamma olim va professorlar til haqida o'zlarini olib borgan tadqiqot va tajribalardan kelib chiqib, o'zlarini to'g'ri deb bilgan narsalarni aytib o'tishgan.[1]

Til ayni rivojlanib kelayotgan shu kunlarda ham til nima degan savolga hamma olimlar ham insonlar o'zlarini bilimlaridan kelib chiqib turlicha ta'rif bilanjavob berishadi. Jumladan:

- “ Til tafakkurni ifoda qiluvchi ishoralar majmuidir” -deb ta'kidlagan edi F.de Sossyur.
- Til - odam ongingin ishtirokisiz, uning tashqi dunyoga nisbatan bo'lgan mexanik harakati”.
- “Til fikrni ifoda qilish uchun mo'ljallangan, talaffuz qilinadigan, chegaralangan majmuidir “ (B.Grosse), degan fikrlar mavjud.

Bu fikrlarning birortasi, garchi bir-birini to'ldirsa ham, tilning to'liq ta'rifi hisoblanmaydi. Negaki, ularning hech biri tilning ijtimoiy mohiyatini ochib berolmaydi. [3.6]

Markaziy Osiyoda ham, Yunonistonda ham, Sharqda ham G'arbda ham til haqida ko'plab olimlar va mutafakkirlar izlanishlar olib borishgan, tilga oid minglab kitob va asarlar yozishgan. Masalan, O'rta Osiyoda Mahmud Koshg'ariy, Abu Nasr Farobi, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Zamaxshariy va Mirzo Mehdixon kabi, Yunonistonda Demokrit va Platonlar kabi mashhur olimlar.

Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad Koshg'ariy. U XI asrda O'rta Osiyoda yashab ijod etgan buyuk qomusiy olimlardandir. Koshg'ariy asosan turkiy tillarning grammatikasiga, leksikologiyasiga asos solgan, fonetikasiga oido'ziga xos va qimmatli meroslar qoldirgan.U turkiy tilshunoslikning ensiklopediyasi hioqlangan, butun dunyoga mashhur “Devonu lug'atit turk” asarining muallifi hisoblanadi.U bu asarni turkiy qabilalar va xalqlar orasida aylanib yurib, ularning tillaridagi bir-biridan farqli jihatlarini o'rganib, e'tiborini shunga qaratadi.Shuning uchun, Koshg'ariy bu asarida aynan bir davrdagiturlicha turkiy tillarga oid hodisalarni, faktlarni, qiyosiy metod asosida solishtiradi.U tilni kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi va insonlar hayotini aks ettiruvchi bir ko'zgu sifatida tushungan. Bu fikr eng to'g'ri va haqiqatga yaqin bo'ladi, chunki biz insonlar bilan muloqot qilishimiz uchun, aloqa qilishimiz uchun har doim, har qanday holatda ham til kerak.[3]

Abu Nasr Farobi. Farobi 873-930-yillarda yashab ijod etgan, u ham O'rta Osiyolik qomusiy olim va mutafakkirdir. Farobi yozgan asarlaridan “Fanlar tasnifi” asarinitilshunoslikka bag'ishlagan. Buyuk qomusiy alloma tilshunoslikning sintaksis, morfologiya, orfoepiya, orfografiya, fonetika va stilistika kabi bo'limlarning dastlabki fikrlarini, tushunchalarni aytib o'tgan.Farobi buyuk olim va mutafakkir sifatida, dialektikaga ham o'z hissasini qo'shgan. Dislektikaning aynan xususiylik va umumiylig turlariga, o'zining lisoniy qarashlarini kiritgan.Uarab tilidagi ot, fe'l va yuklama kabi so'z turkumlarini, yunon tilshunosligida ham borligini aytib, ularning bir-biridan farqini solishtirgan. Hozirgi paytda arab tilshunoslari ham ushbu so'z turkumlarini tahlil qilishda, o'rganishda aynan Farobiyning qarashlari asosida aytishadi.

Abu Rayhon Beruniy. Abu Rayhon Beruniy ham qomusiy olim bo'lib, xorazmlikdir. U 150dan ortiq asarlar muallifi. Ushbu asarlar matematika, kimyo jo'g'rofiya, fonetika, tilshunoslik, riyoziyot va adabiyotlarga oid. Beruniyning lisoniy qarashlari "Saydana" nomli asarda keltiriladi. Aniqrog'i, u asosan tibbiyot va biologiya yo'nalishidan ketganligi uchun, bu asarda o'simliklar, giyohlar va madanlarning tavsifiga bag'ishlangan bo'lib, unda dorivor moddalarning turli tillardagi nomlarini, mahalliy va har bir shevadagi nomlanishlarini keltirgan. Beruniy asardagi 29 bob va 1116 maqolada dorivor moddalarning nomiga izoh beradi. Har bir bob bir harfga bag'ishlangan. U asarda 4500 dan ortiq tillarda, arabcha, yunoncha, suriyacha, forscha, so'g'dcha, xorazmiycha, turkcha va boshqa tillardagi o'simlik hayvon va dorivorlarning nomlarini to'playi va izohlaydi.

Tilning paydo bo'lishidagi asosiy farazlardan biri bu tovushga taqliddir. Bu faraz qadimgi Yunonistonda – Demokrit va Platon davrida o'rta ga tashlangan edi, unga ko'ra ibtidoiy odamlar yo ongli yo ongsiz tarzda turli xil tovushlar, ya'ni hayvonlarning baqiriqlari, qushlarning sayrashi, shamol va sharsharalarning ovozlari va shu kabi har qanday ovozlarga taqlid qilishga harakat qilishgan. Dastlab ayrim tovushlarni o'xshatishga urinishgan, keyinchalik esa u tovushlarni bir-biriga qo'shib, talaffuz qilishni o'rganishgan. Bu tovush va tovush birikmalari so'z yasalishiga asos qilib olingan. Har bir tilda tabiatdagi tovushlarga taqlid qilish yo'li bilan olingan so'zlar bor. Masalan, rus tilida - кукушка, гавкать, шипеть, o'zbek tilida – qarg'a, sharshara, kaklik, chumchuq kabi so'zlarning borligi bu farazga asos qilib olingan. [3,11]

Ma'lumki, til - ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Til tabiiy yoki biologik hodisa bo'la olmaydi. Insonning qaysi tilda gapira boshlashi, qaysi oila, qanday ijtimoiy muhitda tarbiyalanib, ulg'ayishiga bog'liq. Masalan, bir o'zbek oila chet elga borib, faqat o'sha tilda gaplashishsa, farzandlari ham shu tilda gapiradiganlar orasida ulg'aysa, albatta, o'zbek tilida emas, o'sha muhitdagi tilda gapiradi. Aynan shuning uchun ham til ijtimoiy hodisa sanaladi. Til nasldan naslga ta'sir etmaydi. Sababi tilni irsiyatga aloqasi yo'q. Til kishilar o'rtasidagi munosabatni ta'minlab turuvchi eng muhim quroldir. Jamiyat va insoniyat rivojlanib borgani sayin til ham taraqqiy etib boradi va butun insoniyat taraqqiyotining mahsuli sifatida jamiyatga xizmat qiladi. Tilning rivojlanishi, tarkib topishi jamiyatga bog'liqligi tufayli, tilnisotsiologlar o'rganadi. Chunki jamiyat bor joyda til paydo bo'ladi, jamiyat rivojlangani sari til ham rivojanadi. [3,8]

Til har doim rivojlanib, o'zgarib, shakllanib turadigan o'ziga xos, ijtimoiy hodisadir. Abatta, til o'zgaruvchan deb ta'rif berganimizdan keyin, millionlab yillar ichida unga qanchadan qancha ilmiy, amaliy, nazariy nuqtai nazardan nechi marta o'zgartirish kiritilganini tasavvur qilish ham qiyin. Tilning paydo bolishi, kelib chiqishi va rivojlanishi insoniyat jamiyatni bilan chambarchas bog'liq. Chunki til insoniyat tarixi qadar qadimiy. Shuni ham aytib o'tish kerakki, ba'zi tillarning paydo bo'lishini, kelib chiqish tarixini bilish mumkin, masalan o'zbek, fors, tojik, arab, hind tillari kabi. Lekin bulardek aniq til bilan, nutqning kelib chiqishini solishtirib bo'lmaydi.

Tilning tabiatni, mohiyati, kishilik jamiyatida tutgan o'rni, vazifasi, strukturasi va bu strukturani tashkil etgan elementlarning o'zaro munosabati, uning mexanizmlari, prinsiplari

kabi muhim masalalarni o'rganishning, tilni har taraflama tadqiq qilishni talab qiladi. XX asrdan boshlab tilshunoslik fanining predmetini aniqlashda yangi davr boshlanadi. Hozirgi zamon tilshunoslik fanining mashhur asoschisi shveytsariyalik olim F.de.Sossyur(1857-1913) nazazriyasita'sirida tilshunoslik fanining predmeti masalasi ham yangicha tus oldi. F.de.Sossyurning tilshunoslik fanidagi asosiy xizmati shundan iborat bo'ldiki, u ilk bor tilning murakkab hodisa ekanligini aniqlagan holda, yangi mukammal va aniq shakllangan umumiy tilshunoslik nazariyasini yaratib berdi. Boshqa bir qator olimlar ham tilshunoslik fani uchun anchagina o'z hissalarini qo'shishgan. Masalan, A.Shleyxer, G.Paul, M.Myuller. Ular o'zlarining tilshunoslik maktablarida Yosh grammatikachilar maktabi, Praga struktualizmi, Kopengen struktualizmi va Amerika struktua kizmida tilning asl mohiyatini ochib berishmasasiga o'z nuqtai nazarlaridan yondashishgan.[4,2]

Yana bir tilni o'rganuvchi olim, umumiy tilshunoslik fanining asoschilaridan biri V.fon.Gumboldt 1767-1835-yillarda yashab tadqiqotlar qilgan olimlardan hisoblanadi. U tilshunoslik fanining asosiy masalalarini, muammolarini, predmetini va chegarasini o'rgangan olim edi. V. Gumboldt tilshunoslikni inson o'rganadigan tarixiy, falsafiy, etnografik fanlar sirasiga qo'shishga harakat qildi.Uning ta'rificha, til murakkab bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan sifat va xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan hodisadir. Gumboldt fikricha til nihoyatda murakkab va ko'p aspektli hodisa bo'lib, uni ilmiy o'rganish esa tilning barcha aspektli hodisa bo'lib, uni ilmiy o'rganish esa tilning barcha aspektlarini tekshirishni talab qiladi.[1.17]

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, tillarning paydo bo'lishi, uning tarixi, rivojlanishinecha million yillarni ichiga oladi. Tilning o'ziga xos tarixi, strukturasi va vazifasi bor.Yuqorida aytganimizdek, til o'zgaruvchan hodisa bo'lganligi uchun, shuncha vaqtini ichida necha marotaba o'zgargani bizga noma'lum. Lekin biz bu maqolada tilning dastlab qayerlarda paydo bo'lganini, qanday bosqichma-bosqich taraqqiy etganini, tilni o'rganishda qaysi olimlar o'z hissalarini qo'shishganini va tilshunoslik fani haqida, uning asoschilari haqida va ularning til hamda tilshunoslik haqidagi farazlarini tushuntirib o'tishga harakat qildik.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Asadova, C., Ulug'bekova, S., & Shamsiyeva, K. (2024, April). INGILIZ TILIDA LUG'AT YODLASHNING SAMARALI USULLARI. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 152-155).
2. Salimovna, A. C. (2023). TEACHING CHILDREN HOW TO SET ADEQUATE GOALS AND STRATEGIES. *FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS"*, 14(1).
3. Makhmudova, J., & Asadova, C. (2024, April). THE GOALS AND OBJECTIVES OF USING GAME ACTIVITIES IN EDUCATION. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 194-197).

4. Асадова, Ч. (2019). АБСТРАКТНЫЕ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫЕ В АНГЛИЙСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (1-3), 82-84.

5. Асадова, Ч. (2022). Xorijiy tillarni o'rganishda yosh davriga xos xususiyatlar. *Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков*, 1(01), 225-226.

6. I.Yo'ldoshev, S. Muhamedova, Z. Xolmonova, R. Majidova, Sh. Sultonova“Mutaxassislik kirish” Toshkent: fan 2018

7. X. Haydarov “Dunyo tillarining rivojlanish bosqichlari” 2024

8. Arxiv.uz